

**“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanloving
o‘zbek tilini ilmiy-amaliy jihatdan rivojlantirishga
doir ishlanmalarni rag‘batlantirishga qaratilgan
“O‘zbek tilini rivojlantirishga doir eng yaxshi ilmiy-amaliy
loyihalar va dasturiy mahsulotlar” yo‘nalishini tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi, “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganligining 33 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan **“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim”** Respublika tanloving oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, innovatsion texnoparklar, mustaqil ilmiy izlanuvchilar tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish, o‘zbek tilining ilmiy-amaliy, axborot-kommunikativ, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda to‘laqonli joriy etilishini hamda faol qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan **ilmiy-amaliy loyihalarni rag‘batlantirishga qaratilgan “O‘zbek tilini rivojlantirishga doir eng yaxshi ilmiy-amaliy loyihalar va dasturiy mahsulotlar”** yo‘nalishi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi;

1.2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 10-fevraldagi 73-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi;

1.3. Tanlovda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar yaratish, davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun onlayn dasturlar yaratish, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalari va elektron lug‘at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dastur va darsliklar yaratishda ilg‘or natijalarga erishgan ilmiy tashkilotlar, oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalari qatnashadi;

1.4. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash, tashkiliy chora-tadbirlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladi. Tanlovga doir chora-tadbirlarning umumiy ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi

2.1. Tanlovning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

-davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta'minlash;

-barcha sohalarda davlat tilini to'laqonli joriy etish hamda barcha millat va elatlar vakillariga o'zbek tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoit yaratish;

-lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tish jarayonini jadallashtirish bo'yicha eng yaxshi ilmiy-amaliy loyihalarni tanlab olish.

III. Tanlovda ishtirok etish tartibi

3.1. Tanlovda ilmiy tashkilotlar, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari tanlovning rasmiy saytida e'lon qilingan elektron manzil orqali ilmiy-amaliy loyihalarini elektron shaklda taqdim etish orqali ishtirok etadi;

3.2. Oldingi yillarda g'olib bo'lganlar tanlovda ishtirok etmaydi.

IV. Tanlovning tashkiliy qo'mitasini tashkil etish tartibi

4.1. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublika tashkiliy qo'mitasi tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

4.2. Tashkiliy qo'mita tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi;

4.3. Departament hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tanlovning ijrochi tashkilotchilari hisoblanadi;

4.4. Respublika tashkiliy qo'mitasi quyidagi huquqlarga ega:

-o'z a'zolaridan iborat tarkibda komissiya tuzish hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, innovatsion texnoparklar va mustaqil ilmiy izlanuvchilar hamda dasturchilarning tanlovga taqdim etilgan ishlarini o'rganish;

-o'rganish natijasida tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan ilmiy-amaliy loyihalarning ushbu Nizomga muvofiqligi bo'yicha tegishli qaror qabul qilish.

V. Tanlovning vazifalari

5.1. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

-o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, qomusiy lug'atlar yaratishni rag'batlantirish;

-davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun onlayn dasturlar ishlab chiqilishini rag'batlantirish;

-dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;

-xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish;

-davlat tilining to'laqonli joriy etilishini ta'minlashda yuqori natijalarga erishgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, innovatsion texnoparklar, mustaqil ilmiy izlanuvchilar va dasturchilarning ushbu yo'nalishdagi yutuq va muvaffaqiyatlarini ommalashtirish.

VI. Tanlovning yo'nalishlari

6.1. Tanlovga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar qabul qilinadi:

-lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish;

-davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish;

-davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalaridan foydalanish uchun onlayn dasturlar ishlab chiqish;

-dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;

-xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar, lug'atlar, amaliy qo'llanmalar yaratish.

VII. Tanlovni o'tkazish bosqichlari va muddatlari

7.1. Birinchi bosqich (1-iyuldan 1-sentabrgacha)da ilmiy tashkilotlar, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari tanlovning rasmiy saytida e'lon qilingan elektron manzil orqali ilmiy-amaliy loyihalarini taqdim etadi;

7.2. Ikkinchi bosqich (1-30-sentabrgacha)da taqdim etilgan ilmiy-amaliy loyihalar ijrochi tomonidan shakllantirilgan Ekspertlar guruhi tomonidan o'rganiladi hamda baholash mezonlariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkichga erishgan nomzodlar Respublika Hakamlar hay'atiga tavsiya etiladi;

7.3. Uchinchi bosqich (10-oktabrgacha)da Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov g'oliblari aniqlanadi.

7.4. Tanlov har yili o'tkaziladi va g'oliblar 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni arafasida e'lon qilinadi.

VIII. Tanlovga ilmiy-amaliy loyihalarni taqdim etish tartibi va baholash mezonlari

8.1. Tanlov uchun ilmiy-amaliy loyihalar rasmiy saytda e'lon qilingan elektron manzil orqali taqdim etiladi;

8.2. Tanlovga belgilangan mavzu va yo'nalishlarga mos keladigan so'nggi bir yil ichida yaratilgan (nashr etilgan/patentlangan) lug'atlar, elektron dasturlar, amaliy qo'llanmalar taqdim etilishi mumkin;

8.3. Dasturiy mahsulotlarga ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ilova qilinishi lozim;

8.4. Elektron shaklda taqdim etilmagan ilmiy-amaliy ishlar tanlovda ishtirok etmaydi;

8.5. Ilmiy-amaliy loyihalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

-loyihaning ilmiy-amaliy yangiligi, dasturiy mahsulotning mazmuniy va texnik mukammalligi;

-mavzuga mosligi va dolzarbligi. Ilmiy-tadqiqot va dasturiy mahsulotning tanlov mavzusiga hamda tanlov oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos kelishi;

-g'oyaning o'ziga xosligi. Dasturiy mahsulot foydalanish uchun qulay bo'lishi va avval yaratilgan boshqa dasturiy mahsulotlarni aynan takrorlamasligi;

-amaliy qo'llanmalarning qulay va soddaligi, zamonaviy pedagogik yutuqlardan foydalanilganligi.

IX. Mualliflik huquqlari

9.1. Tanlovda ishtirok etayotgan ilmiy-amaliy loyihalarda mualliflik huquqlari buzilganida ishni tanlovga taqdim etgan muallif (mualliflar jamoasi) javobgar hisoblanadi;

9.2. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan ilmiy-amaliy loyiha(lar)ning muallifi ekanligini, ularda boshqa shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqi buzilmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilgan taqdirda, ishtirokchi tashkilotchilarga yetkazilgan barcha zarar hamda tashkilotchilarning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun sarflangan xarajatlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

9.3. Tanlovda ishtirok etayotgan ilmiy-amaliy loyihalardan ommaviy ravishda foydalanish mualliflik huquqiga oid qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi;

9.4. Tanlovda g'olib bo'lmagan ishtirokchilarning ilmiy-amaliy loyihalariga munosabat bildirilmaydi va qaytarilmaydi;

9.5. Tanlovda tegishli o'rin olmagan loyihalardan kelgusida mualliflar o'z xohishiga ko'ra foydalanishlari mumkin;

9.6. Ilmiy-amaliy loyihagini tanlovga taqdim etish orqali ishtirokchi ushbu Nizomning barcha bandlariga o'z roziligini bildiradi.

X. Tanlov g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

10.1. Tanlovning yakuniy bosqichiga taqdim etilgan ilmiy-amaliy loyihalar orasidan Hakamlar hay'atida ovozga qo'yish yo'li bilan eng ko'p ovoz to'plagan uchta o'rin (1-, 2-, 3-o'rinlar) aniqlanadi;

10.2. Tanlov natijalari va g'oliblarning ro'yxati tanlovning rasmiy sayti hamda axborot hamkorlari hisoblangan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

10.3. Tanlov g'oliblari tashkilotchilarning maxsus sovg'alari bilan taqdirlanadi.

XI. Yakunlovchi qoidalar

11.1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ushbu Nizomga muvofiq tanlovda ishtirok etayotgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, innovatsion texnoparklar hamda ixtiyoriy ilmiy izlanuvchilar va dasturchilar tomonidan taqdim etilgan ilmiy-amaliy loyihalarning xolis ko'rib chiqilishi uchun bevosita mas'uldir;

11.2. Mazkur Nizom talablari asosida g'oliblarga berilgan yutuqlar qiymati amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti deb hisoblanadi;

11.3. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.